



O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA LINGVOMADANIY O'XSHATISHLARNING IFODALANISHI

Abdullayeva Ozoda Bobir qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8005610>

ARTICLE INFO

Received: 27th May 2023

Accepted: 04th June 2023

Online: 05th June 2023

KEY WORDS

Antroposentrik, lingvokulturologiya, madaniyat, lingvomadaniy o'xshatishlar, individual o'xshatishlar, turg'un o'xshatishlar, o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi, shakliy ko'rsatkichi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yozuvchi O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida qo'llanilgan lingvomadaniy o'xshatishlarning ifodalanishi va ularning badiiy-funksional tomonlari haqida fikr yuritiladi.

Xalqning o'ziga xos sajiyasi, milliy mentaliteti, madaniyati, ma'naviyati, ruhiyati, tafakkur tarzi va tahayyul tamoyili, idrok-intizomi kabi muhim xususiyatlari tilda tajassum topadi. Antroposentrik tilshunoslik markazida inson turadi va u mazkur haqiqatga asoslangan. Bu yo'nalishning tarmoqlaridan biri – lingvokulturologiya yoki lisoniy madaniyatshunoslik bo'lib, u tilni "til – madaniyat – inson" uchligi doirasida o'rganadi. [1,3] So'nggi yillarda til va madaniyat masalalarini o'rganuvchi fan sifatida **lingvokulturologiya** fani shakllandi. *Lingvokulturologiyaning obyekt*i – madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini bir butunlikda tadqiq qilishdir. Lingvokulturologiyaning predmeti madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi.[4,42] Albatta, xalqning milliy mentaliteti uning tilida o'z ifodasini topadi. Bu haqida rus tilshunos olimasi V.Maslova shunday deydi: "Xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi ma'lumotlarning eng qimmatli manbasi frazeologizmlar, metaforalar, ramzlar va sh.k.lardir, ularda asotirlar, afsonalar, urf-odatlar go'yoki konservatsiyalangan holatda saqlangan bo'ladi". [1,3]

Obrazli tafakkur mahsuli bo'lgan o'xshatishlar badiiy-estetik qiymatga ega bo'lib, nutqning emotsional-ekspressivligini, ta'sirchanligini, ifodaliligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi mavjud:

1. **Individual-muallif o'xshatishlari:** Ko'chaning ikki betidagi **bargak chiqargan tollar hozirgina sochini yuvib, o'tobda quritayotgan qizdek tamanno qiladi.** Qushlar oshiyon qurish tashvishida chug'urlyadi. [5,86] Negadir **birinchi qor yog'ishini uzoq kasal bo'lib**



yotgan odamning jon taslim qilishiga o'xshataman. [5,147] Qorong'i quyuqlashib ketgan bo'lsa ham hovli sathini qorning ko'kintir nuri yoritar, ***gultojixo'rozlar ko'chada qolgan yetim boladek qor ostida boshini o'ksik egib turardi.*** [5,160]

2. **Umumxalq yoki turg'un o'xshatishlar:** Dushman bitta mina otib, o'n bitta o'zbekni qiyma-qiyma qilsin, bomba tashlab, dyadya Vasyanong ichagini boshiga salla qilib qo'ysin-da, men ***qo'ydek yuvosh, musichadek beozor*** bo'lib turaveraymi? Yo'q! [5,203]

O'xshatishlar o'z navbatida to'rt unsur dan tarkib topadi. Bular: o'xshatish subyekt, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakli ko'rsatkichi.

Har bir xalqning o'ziga xos o'xshatishlari mavjud. Ularni shoir-yozuvchilar o'z uslubiga mos tarzda asarlarida qo'llaydi. Yozuvchi O'tkir Hoshimov asarlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, adib ijodida turg'un o'xshatishlar asosiy o'rin tutishini ko'rishimiz mumkin. Tahlil uchun O'Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanini tanladik. Ushbu asarda yozuvchi o'zbek millatiga xos lingvomadaniy o'xshatishlardan unumli foydalangan. Biz ularning o'xshatish etaloni nima ekanligiga qarab quyidagi mavzuiy maydonlarga ajratishimiz mumkin:

1. **Uy jihozlari bilan bog'liq o'xshatishlar:**

Har "ko'zi" ***piyoladek oynak*** taqib yuradi. O'zining ***yuzi lagandek. Razm solib qarasangiz, oppoq chinni laganning ikki chetiga ikkita piyola to'nkarib qo'yilganga o'xshaydi.*** [5,4] Kimsan akam ***hovonchadek mushtini*** baland ko'tarib Ochilboyga tashlangan edi, Zuhra kelin bilagiga osildi. [5,82] ***Barkashdek kaftini*** dadamning iyagi oldida paxsa qilib baqirdi. [5,45] Yo'l chetida ***qip-qizil qizg'aldoqlar gilamdek*** tovlanadi. [5,86] Taxta vagonlar ***darvozadek keng eshigini*** ochib turibdi. Deraza yo'q. O'rnida ***patnisdek tuynuk.*** [5,103] U ***qozondek do'ppisini*** boshidan yechib tutqazdi. [5,107] Ammamniyam allaqayeri o'sha ***chumoliga o'xshab ketardi. O'zi mushtday*** keladi-yu, orqasida ***tandirdek qop.*** [5,110] Silliqlik kesilgan lavlagining yerda qolgan pallasi ***lagandek*** oppoq ko'rinib qoldi. [5,321] Boshiga mursak tashlagan ***barkashdek yuzi*** bo'g'riqib ketgan semiz bir xotin boyagi paranjilini tirsagi bilan itardi. [5,348] Quyuq qoshlarini chimirib, ***hovonchadek mushtini*** xontaxtaga qo'ydi. [5,361] To'satdan ***ko'kragi bosqondek*** qattiq-qattiq ko'tarilib tusha boshladi. [5,378] Peshinga borib ***kun tandirdek*** qizib ketdi. [5,403] Qo'zivoq degan bola bor. O'zi ***mushtdek,*** kallasi ***xumdek.*** [5,459] Qorniga tushgan musht zarbidan ***obkashdek*** ikki bukilib qoldi. [5,461] Engashib yerdan ***choynakdek*** tosh oldi. [5,478] O'rtasidagi ***ipdek*** ariqchadan isqirt suv oqib turgan jinko'chaga kirishim bilan eshigimizdan otilib chiqqan Klara opaga ko'zim tushdi. [5,567]

2. **Ovqat, taom nomlari bilan bog'liq o'xshatishlar:**

Choyxonachining ***yuzi*** cho'tir. Shuni askiya qilishadi. Birov ***do'lda qolgan tappi*** deydi, birov ***chakichlangan patir...*** [5,17] Hozir ham ikkalasi bir-biriga o'xshaydi. ***Popukdek qosh-ko'zi, kulcha yuzi...*** Faqat Fotima kelin semirib ketgan. Zuhra kelin bo'lsa ***tasmadek.*** [5,71] Bunaqa chiroyli qizni umrim bino bo'lib ko'rmaganman! Qalamda tortilgandek qoshlari, yonib turgan qop-qora xumor ko'zlar, ***sutday oppoq yuz,*** ingichka iyagidagi mitti xoli, ***angishvonadek og'zi*** — hammasi ataylab chizib qo'yilgan suratga o'xshaydi. [5,91] Xuddi ***sariyog' kesgandek,*** ketmonni avaylab tashlaydi. [5,133]

3. **Narsa-buyum nomlari bilan bog'liq o'xshatishlar:**

Yer hamon ***beshikdek*** lopillar, uy muttasil nari-beri borib kelar, shiftdan ohak ko'chib yerga to'kilar, hamma yoq g'ijir-g'ijir qilar edi. [5,601] Ajab, ***inson xotirasi — eshigi yopib qo'yilgan omborga*** o'xsharkan. [5,13] Chap ***qo'lim tayoqdek*** qotirib bog'lab tashlangan. [5,34]



Abzining *eshigi tuynukdek ingichka* bo'lsayam, hamma kelaveradi, iti yo'q. [5,79] – Robi! Bir qoshiq suvminan yutadigan okang bor-de! – dedi *oshni guvaladek* dumaloqlab og'ziga tiqarkan. [5,100] U *chillakdek ingichka, titroq barmoqlari* bilan yana guruch terishga tushdi. [5,11] U chap *qo'lini tayoqday* osiltirib tag'in siltadi. [5,114] Bir qo'li bilan burnini chimchilab, ikkinchi qo'li bilan yonida o'tirgan Parcha xolaning *gumbazday yelkasiga* musht tushirdi. [5,120] Boshidagi yirtiq ro'moli, *gungursdek* yelkalari qorga belangan. [5,195] Arava burchagida *supadek joyni* egallab o'tirgan Parcha opa do'rillaydi. [5,125] *O'qdek uchib*, qorong'i uyga kirdim-u, o'zimni yerga otdim. [5,131] Ana, *chillakdek qo'llari* qaltiray boshladi. [5,137] Qorda *tangadek izni* ko'rib yuragim bir qalqib tushdi. [5,150] Dahshatdan olayib ketgan ko'zlarini, *bo'zdek oppoq yuzini* ko'rib, to'satdan hammasini tushundim. [5,405] Har doim *o'tday yonib turadigan ko'zlari o'radek ich-ichiga botgan*, burni so'rroyib, mo'ylovi osilib qolgan... [5,409] Nima uchun keying paytlarda Toshkentga *bo'zchining mokidek* qatnayotganini mana endi tushundim. [5,426] Dars tugashi bilan Abduvali *yelimday* yopishib oldi. [5,443]

4. Hayvon va jonivorlar nomlari, ularning uzvlari bilan bog'liq o'xshatishlar:

Tabib buvaning xotini – Lazakat xola. *Burni tovuqning tumshug'iga* o'xshaydi. [5,34] Cholinning jussasi kichkina bo'lsayam, *yuragi otning kallasidek* edi. [5,38] – O'v! – dedi *bo'ynini xo'rozdek cho'zib*. [5,48] – Kimsan! Uyalmaysanmi, *toyloqdek* bo'lib qiz bolani yig'latishga! [5,49] – Ordona! *Sigirday xotinga* atlas ko'ylakni kim qo'yibdi! [5,72] *Qo'ydek yuvosh Kimsan akamning* jahli shunaqa yomonligini bilmagan ekanman! [5,82] Xotin-xalaj ichida nima bor *ho'kizday yigitga!* [5,85] Hamma urushga borsa-yu, *Kimsan toshbaqadek boshini ichiga tortib o'tirsa* yarashadimi? [5,96] Alvastiko'prikdan o'tayotganimizda qorong'i o'pqqonda *ilondek vishillayotgan suvga* qarab, vahmim keldi. [5,102] Rangida rang qolmagan, og'zini *baliqdek kappa-kappa ochar, gunoh ish qilib qo'yib, dakki eshitishdan cho'chigan boladek* ayanchli iljayar edi. [5,138] Aka-uka bitta tankda , pashistni *qurvaqadek* ezg'ilayotgan emish! [5,156] Nega mulla mingan *eshakdek* angrayasan. Tur o'rningdan! [5,158] Ra'no kelinoyim, oppoq qor bosgan dala, qo'lga olsangiz *chayondek* chaqayotgan *muzdek kartoshkalar* – hammasi aralash-quralash bo'lib ko'z o'ngimdan o'tadi, boshim aylanadi... [5,159] Qor bosgan dalada *mo'ri malaxdek* o'rmalab kelayotgan tanklar xuddi sen turgan okpga bostirib kelayotganga o'xshaydi. [5,198] Lekin aqalli bitta fashistni yer tishlatishni, qorga dumalab dod solib chinqirayotgan, hov o'shanda olma tagida dadam so'ygan *qo'ydek xirillab* jon taslim qilayotgan bitta nemisni o'z ko'zim bilan ko'rishni, bilib qo'y, seni men o'ldirdim, deb boshida kulib turishni judayam xohlar edim. [5,202] Nima bo'lgandayam hadik azobidan qutulsam, *bir cho'qib, atrofga ming alanglagan qarg'adek* ayanchli ahvoldan xalos bo'lsam deysan. [5,237] Bunaqa ishni *qarchig'aydek chaqqon, sherdek dovyurak* odam eplaydi. [5,263] Qaniydi hozir yonimda bo'lsa, *itday vangillatib* qamchilardim. [5,297] *Amal – asov otdek* gap. [5,301] Parchaning yuzida *arqondek* ikkinchi chiziq bo'rtib chiqdi. Parcha bu gal ham qochmadi. Lekin *ilondek* to'lg'anayotgan qamchinni mahkam changallab oldi. [5,322] Olimjon *mushukdek* g'ujanak bo'lganacha pishillab uxlar, boshidan do'ppisi tushib, peshanasi terlab ketgan, nariroqda pachaq chelak to'nkarilib yotardi. [5,328] Bolam tirik bo'lganida Zo'ra *qo'chqordek o'g'il* tug'ib bersa ajabmasdi. [5,340] *Maymundek* tarmashib, daraxtning shoxiga minib oldi. [5,381] Bora-bora



musichadek beozor dadam chindan ham oyimdan qo'rqishiga ishondim. [5,544] Bugun *o'q yegan kaptardek* chilparchin bo'lib yerga tushdim. [5,549]

5. Gul bilan bog'liq o'xshatishlar:

Eri urushda o'lgan qanchadan qancha *gulday juvonlar* yuribdi sabr qilib. [5,39] Robiyam, sening *Robiyang, qovjiragan guldek* ko'zimning oldida so'lib boryapti. [5,40] Kim bilsin, hali uyam urushga o'tlanib qoldimikan, *guldek xotinini* qon qaqshatib... [5,97] "Podadan oldin chang ko'tarma, *g'unchaday xotiningni* tshlab urush qilishni kim qo'yibdi senga, — debdi, — mana jiyaning ham hovliqib borib, bo'shshib qaytdi, kerak paytida o'zlari topib olarmish", debdi. [5,99] — Nima qipti, *gulday yigit*. — Bu oyimning ovozi edi. — Ular ham to'y ko'rib qolsak, deydi-da! [5,130] Oyog'idagi etigi loyga belangan, siyrak soqoli *tikandek* o'sgan, sochi hurpayib ikki qulog'i ustiga qayrilib tushgan, harbiy kiyimda bo'lishiga qaramay, yelkasida pagon yo'q edi. [5,334] Archaning *tikandek* dikkaygan yaproqlarini changallab turarkanman, xayolimga yarq etib najotkor fikr urildi. [5,550]

6. Inson va uning a'zolari bilan bog'liq o'xshatishlar:

Hovli sathi keng bo'lgani bilan *kaftdek bo'sh joy* yo'q. [5,51] Qarasam, har yelkasiga ikkitadan yigit o'tirsa bemalol ko'taradigan, *kesilgan jigardek qalin labida* mo'ylov o'sgan Parcha opa devor tagida *g'oladek oyoqlarini* cho'zib bir lagan oshni tizzasiga qo'yib uryapti. [5,100] Boya ham oy tepada edi. Muncha xunuk bu? *Kuydirgan kalladek* irshayishini qara! Xuddi masxara qilayotgan,dek. [5,297] Osmonda, kunbotar tomonda *ko'r odamning ko'zidek xira oy* tumanlik orasida sarg'ayib turar, ammo atrofni yoritish o'rniga g'ashga tegardi. [5,372] Qo'zivoy degan bola bor. O'zi *mushtdek*, kallasi *xumdek*. [5,459]

7. Meva, sabzavotga bilan bog'liq o'xshatishlar:

Rangi zahil, qulog'ining orqasida *danakdek so'gali* bor begona odam kelib, dadamning kitob-daftarini rosa titkiladi. [5,59] Qirrasiga *danakdek maska yog'* yopishtirilgan chelak olib chiqdi. [5,75] Orqa oyoqlab tik turgani uchunmi *bodringdek yelinlari* dikkayib ketgan. [5,79] Uchalamiz *shaftolidek qizarib* hovliga chiqqanimizda qorong'i quyuqlashib qolgan, hali oy chiqmagan, ammo osmonda faqat bahor oqshomlari bo'ladigan nimtatir, mayin yorug'lik bor edi. [5,80] Bobom *olmadek mushtini* do'laytirish dashnom berdi. [5,96] *Danakdek kartoshkani* lippasiga qistirgan odamni tribunalga beraman. [5,134] Oxirgi paqirdagi kartoshka *xirmondek* uyulib ketgan zambilga sig'may toshib tushdi. [5,136] Ra'noxon Shomurodga yalakat *danakdek* yopishib qolgan ekan, vokzalga borganda bo'niga chirmashib oldi. [5,148] O'rmon yalangligidan bizning tank chiqib keldi-da, yonboshidan turib, zambaragidan bir o'q uzgan edi, mashina parcha-parcha bo'lib, ustidagi nemislar qorga *tariqdek* sochilib ketdi. [5,204] Qarasa, bolaning chakkasida *no'xatdek* joyi qorayib turgan emish. [5,246] *Pashsha o'tirib dog' bo'lib ketgan olmadek lampochka* atrofida chivinlar g'ujg'on uradi. [5,451] Muzaffar *sholg'omdek* qizarib ketdi... [5,572] Qiziq, anavi ninachimi? *Chivindek* joni bor-ku, qo'rqmaydi. Bir qarich pastlasa-ku, tamom: *piyoz po'stidek qanotlari* ho'l bo'ladi-yu, alamini kimdan olishini bilmay o'shqirayotgan to'lqinlar vahshat komiga tortib, chirpirak qilib ketadi. [5,577]

8. Kiyim-kechak nomlari bilan bog'liq o'xshatishlar:

Menga qolsa, raislik u yoqda tursin, ming marta katta *amaliyam misoli oyog'ingdagi etikday* gap. [5,66] Kunbotar ufqda *tillaqoshdek nozik oy* yaltirab turibdi. [5,88] Xolposh xola so'nggi



bor oh chekdi-yu, rangi **dokaday oqarib**, boshi shilq etib yoniga tushdi. [5,341] Uyingdan **kavushdek o'lik** chiqsa, **tog'dek xarajatni** yetaklab ketadi. [5,426]

9. Tabiat va tabiat hodisalari bilan bog'liq o'xshatishlar:

Kimsan akam **tog'dek yigit** bo'lgan. Bobomga ikkita keladi.[5,69] Bargak chiqargan tol panasiga yetganda Kimsan akam taqqa to'xtab qoldi. Xayol surib kelayotgan ekanman, **tog'dek yelkasiga** urilib ketdim. [5,88] Bir muddat turib qoldim, ko'zim qorong'ilikka o'rgangandan keyin omborning bir burchagida **tog'dek uyulib yotgan piyoz**, narigi burchagidagi karamlarni ilg'adim. [5,170] Oqsoqol og'zini kappa-kappa ochib hansirab turdi-da, **kesilgan daraxtdek** shilq etib yerga o'tirib qoldi. [5,181] Zakunchi **tog'dek** uyulib yotgan, har bittasi **do'ngdek** keladigan qandlavlagi xirmoniga ko'z tashlab, qamchili qo'li bilan ingichka mo'ylovini siladi. [5,320] Zuhra kelin bedarak yo'qoldi. **Quduqqa tushgan toshdek**, na o'ligining daragi bor, na tirigining. [5,329] U Zuhra kelinning boshiga **quyundek** yopirilib keldi. [5,337] A'zoyi badanim **olovdek** yonib ketayotganini his qilaman-u, o'rnimdan turolmayman. [5,344] Tumanlik qo'ynida yorib chiqqan **nur samovar dudburonidan otilayotgan olovdek** lovullab, tezlik bian bostirib kelardi. [5,372] Ammamning qulog'i og'ir bo'lgani uchun gapimni yaxshi eshitmadimi, **suvga tushgan toshdek** xira ko'zlarini pirpiratib ko'zimga tikildi. [503] Gulsapsarlar binafsharang **olovdek** tovlanadi. [5,503] **Momaqaldiroqdek** gumburlab gapirishini eshitganman. [5,580]

10. Ish-qurol buyumlari bilan bog'liq o'xshatishlar:

Bunaqa chiroyli qizni umrim bino bo'lib ko'rmaganman! Qalamda tortilgandek qoshlari, yonib turgan qop-qora xumor ko'zlar, **sutday oppoq yuz**, ingichka iyagidagi mitti xoli, **angishvonadek og'zi** – hammasi ataylab chizib qo'yilgan suratga o'xshaydi. [5,91] Oqsoqol **belkurakday kafti** bilan tizzasiga urib, mazza qilib kuldi. [5,93]

11. Shaxs va uning faoliyati bilan bog'liq:

Abduvalining **oyisi kurash tushadigan polvondek** gerdayib o'rtaga chiqdi. [5,118] Kimsan akam **dorbozlardek** bir oyoqlab bag'azga osilgan ko'yi biz tomonga yuzlandi. [5,95] Parcha opa qaylig'idan uyalgan **kelinchakdek** ombor burchagiga lapanglab qochdi. [5,175] **Dumba yegan chaqaloqdek** shirin tamshanib uxlashini-chi?! [5,263] Yupqa, qat-qat **bulutlar** muallaq qotib qolgan. **Xuddi kelinning boshiga ro'mol yopmoqchi bo'lgan yangalardek** oy yuzini to'sishga behuda urinadi. [5,528] Hovuchimni to'latib tuz yeyishim kerak-da, **shakar shimgan odamdek** iljayib turishim kerak. Nega? [5,126]

O'tkir Hoshimov asarlarida o'zbekona o'xshatishlarni qo'llaydi. Masalan, "tandir" etaloni N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalarning "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"da "Qizimoq,yonmoq. Asosan, havo harorati haqida" [1,204] tarzida izohlangan: Peshinga borib **kun tandirdek** qizib ketdi. [5,403] Lekin O'.Hoshimov asarlarida uning "katta, ulkan" ma'nolarini ifodalashini ham ko'rishimiz mumkin: Ammamniyam allaqayeri o'sha **chumoliga o'xshab ketardi. O'zi mushtday** keladi-yu, orqasida **tandirdek qop**. [5,110] Tandir non, somsa, kabob kabilarni yopib pishirish, tayyorlash uchun loydan yasalgan qurilma [2,662] bo'lib, azaldan o'zbek xalqi hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. "Kulcha" etaloni "yum-yumaloq, kichkina" [1,115] ma'nolarida, asosan, insonlarning yumaloq, kichkina, chiroyli yuzini yoxud to'lin oyni ifodalash uchun xizmat qiladi: Hozir ham ikkalasi bir-biriga o'xshaydi. **Popukdek qosh-ko'zi, kulcha yuzi...** Faqat Fotima kelin semirib ketgan. Zuhra kelin bo'lsa **tasmadek**. [5,71] "Musichaday beozor" o'xshatishini ham boshqa tillarda uchratish qiyin. Musichaday



o'xshatish etalonida milliy-madaniy konnotatsiya mavjud, unda "beozorlik" belgisining o'zbekka xos ta'kidi yaqqol o'z ifodasini topgan. [1,11] "Danakdek" o'xshatishida kichkinalik, uvoqqinalik ma'nosi mavjud [1,65]: **Danakdek kartoshkani** lippasiga qistirgan odamni tribunalga beraman. [5,134]. O'tkir Hoshimov asarida esa uning "me'yordan katta" ma'nosida ham (Rangi zahil, qulog'ining orqasida **danakdek so'gali** bor begona odam kelib, dadamning kitob-daftarini rosa titkiladi. [5,59]), "yopishib olmoq, yaqin bo'lmoq, ajralmaslik" ma'nolarida ham (Ra'noxon Shomurodga yalakat **danakdek** yopishib qolgan ekan, vokzalga borganda bo'niga chirmashib oldi. [5,148]) qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Yalakat danak bu qo'sh mag'izli danak hisoblanadi. Uing ichidagi qo'sh ma'giz bir-biriga yopishib turadi. Ra'noxonning erini urushga jo'natgisi, undan ajralgisi kelmayotganini muallif shunday individual o'xshatish orqali yoritib bergan.

Xulosa qilib aytganda, adib ijodida o'zbek mentaliteti, madaniyati va turmush tarzini ko'rsatuvchi ko'plab lingvomadaniy o'xshatishlarni uchtishimiz mumkin. Birida ayollarning go'zalligi ta'riflansa (gulday, g'unchaday), boshqa birida erkaklarning kuch-qudrati, baquvvatligi (tog'day) tarannum etiladi. O'xshatishlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Kundalik hayotda ishlatiladigan, kuzatiladigan narsalarga qiyos qilinadi. Hech qachon ko'rmagan, bilmagan narsasiga biror narsani o'xshatmaydi. Shuning uchun ham ko'pgina o'xshatishlarni boshqa tillarda uchratmaymi. Chunki har bir xalqning, millatning o'zining geografik joylashuvi, o'ziga xos turmush tarzi bor va o'xshatishlar ham ana shu faoliyat natijasida yuzaga keladi.

References:

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. -320b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. -B.662
3. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: SamDU, 1994. -B. 8-15
4. Yusupova O. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – B.42
5. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. Roman. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. -606 b.
6. Mahmadiyev Sh., Rasulova F. Idish-tovoq leksikasini bildiruvchi ayrim birliklarning leksik-semantik tahlili("Ravshan" dostoni misolida). Research and education. Volume: 1, Issue: 1. – India, 2022. – P.370-374.
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=13655164339879612398&btnI=1&hl=en>
7. Islamova D. Expressive means of language and transposition. International Bulletin of Applied Science and Technology (IBAST). Volume: 3, Issue: 5. – Germaniya, 2023. – P. 1231-1234. (Impact factor: UIF = 8,2 | SJIF = 5,955).
<http://yandex.ru/clck/jsredir?from=yandex.ru%3Bsearch%2F%3Bweb%3B%3B&text=&etxt=2202.1yG39J->